

**o‘ZBEKISTON OLIY VA O‘RTA TA’LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
204 – GURUH TALABASI**

Bahriddinova Malohat Nuriddinovnaning

**„TOG‘AY MUROD HAYOTI VA IJODI”
MAVZUSIDAGI REFERATI**

The background of the slide is a vibrant blue sky filled with soft, white, puffy clouds. The clouds are scattered across the frame, with some larger ones on the left and right sides, and smaller ones in the center. The overall atmosphere is bright and clear.

Mavzu: TOG‘AY MURODNING HAYOTI VA IJODI.

REJA:

1. Togʻay Murodning hayoti.
2. Togʻay Murodning asarlari talqini.
3. Togʻay Murod zamondoshlar yodida.

Tog'ay Murod





Tog'ay Murod 1948-yilda Surxondaryoning Denov tumaniga qarashli Xo'jasoat qishlog'ida tug'ildi. Qishloqdagi o'rta maktabda o'n yil o'qigach, 1966-1972-yillarda hozirgi O'zbekiston Milliy universitetiga jurnalistika fakultetida ta'lim oldi. Bu maskan Tog'ay Murod uchun muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishi uchun ijodiy maktab rolini o'ynagan edi. U 1972-1976-yillarda respublika radiosining „Vatandoshlar“ tahririyatida xizmat qilgan bo'lsa, undan keyin „o'zbekiston fizkulturachisi“ gazetasida, 1982-yildan 1985-yilgacha esa „Fan va turmush“ jurnalida xizmat qildi. 1985-1987-yillar ichida Maskvadagi Jahon adabiyoti institutida ham tahsil olib qaytdi.

Adabiy taxallusi Togʻay Murod, asl ismi-sharifi Togʻaymurod Mengnorov boʻlgan bu noyob isteʼdod egasi 70-yillari adabiyot maydoniga kirib keldi. Dastlab mayda hikoyalar yozib yurdi. 1976-yili «Yulduzlar mangu yonadi» degan qissasi «Sharq yulduzi»da eʼlon etildi-yu, birdaniga uning nomi el ogʻziga tushdi, muhokamalarda, maqolalarda asar yilning eng yaxshi qissasi deb eʼtirof etildi. Soʻng birin-ketin «Ot kishnagan oqshom» (1979), «Oydinda yurgan odamlar» (1980), «Momo yer qoʻshigʻi» (1985) qissalari chiqdi. Bu asarlarning har biri adabiyot osmonida goʻyo momoqaldiraqdek yangradi, keng jamoatchilik eʼtiborini tortdi, qizgʻin baxs-munozaralarga asos boʻldi. Bu qissalari uchun Togʻay Murod Respublika Yozuvchilar uyushmasi Oybek nomidagi mukofoti bilan taqdirlandi



Togʻay Murod „asarlari bu mening farzandlarimdir!“ degan edi



The background of the image is a close-up of several pink roses with green leaves, set against a solid pink background. The roses are in various stages of bloom, with some showing more petals than others. The lighting is soft, highlighting the texture of the petals.

**Togʻay Murod 1986-1991 yillari
«Otamdan qolgan dalalar»
romani ustida ishladi, asar 1993
yili dunyo yuzini koʻrdi. Roman
1994 yili istiqlol davri oʻzbek
adabiyotining ilk yetuk namunasi
sifatida Abdulla Qodiriy nomidagi
davlat mukofotiga sazovor boʻldi.**

ТОҒАЙ МУРОД

**Отамдан
қолган
далалар**



Хуршид Дўстмуҳаммад
ТОҒАЙ МУРОДНИНГ СИРЛИ ДУНЁСИ

Adibning o'zbek dehqonlarining va shaxs hamda o'tmish fojialari talqin qilingan yana bir romani «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» deb nomlanib, asar 2001 yilda nashr qilindi. Tog'ay Murod badiiy tarjima bilan ham shug'ullangan, J.Londonning «Boyning qizi» dramasi va qator hikoyalarni, E.Seton-Tompsonning hayvonot dunyosi haqida mashhur «Yovvoyi yo'rg'a» kitobini mahorat bilan o'zbekchalashtirgan.

O'zbek nasrining an'anaviy dasturini davom ettirib, yangicha ruhdagi asarlar yaratish T. Murodning oldiga qo'ygan maqsadi edi. Ularda yozuvchi nozik psixologizmni, mavzuning kengligi, voqealar tor bo'lgan bilan, mazmuni boyligi hayotga mosligi, hikoyalarida shaxs muammosi, inson taqdiri, avlod, kelajak qanday bo'ladi? kabi masalalarni ko'tarib bera oldi. U o'zining 60-70 yillarda yaratgan hikoyalarida xuddi shu narsalarni e'tirof etib, inson taqdiri, uning tortishuvlari, xarakter xususiyati orqali shu davrga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaray oldi va shularni ayta bildi.



- Afsuski, iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murod ayni ijodiy kuchga to'lgan paytda-55 yoshida hayotdan ko'z yumdi. Uning ijod stoli ustida tugallanmagan qator asarlarning , tarjimalarning qo'lyozmalari qoldi.

TOG'AY MUROD ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA
MEN QAYTIB
KELAMAN



„U bir qarashda haddan ziyod g‘ururi
g‘olib yigitga o‘xshardi. Bir qarashda
qo‘pol, manman, hech kimni nazariga
ilmaydigan odamday tuyulardi. Keyinroq
ma’lum bo‘ldiki, Tog‘ay Murod manman
emas, aksincha ko‘ngli nozik, kamchiliklari
ham, fazilatlari ham o‘ziga xos, gaplashish
usullari ham alohida bir dunyo ekan”
(Odil Yoqubov).

Bir suhbatimizda Tog‘ay:., Men
hech kimdan qo‘rqmayman. Har
qanday zo‘rovon bilan tikka
olisha olaman. Ammo
kitobxondan qo‘rqaman. o‘lay
agar, juda qo‘rqaman”,
degandi...

(Said Ahmad).

„Agar yozuvchining o‘zi shaxs bo‘lmasa, u yaratgan asarlar ham biror qiymatga ega bo‘lmaydi. Tog‘ay Murod asarlari uning shaxsini ko‘rsatib turadi... „Yulduzlar mangu yonadi“ qissasi...faqatgina kurash haqida emas, insonning ori haqidagi kitob. Insonning g‘ururi, uning nimalarga qodirligi haqida yozilgan mardona kitobdir”

(Mahmud Sa‘diy).

**Tog'ay Murod degani – tog'day murod degani,
Ketganligin xabari – fig'on, faryod degani,
Kelganida odamday quvongan, ketganida-
Odamdan baland uvvos ko'targan ot degani.**

**Odamlar-ov, ketar chog'ida yuraklarni
larzaga solib, bor dunyoni yig'latib ketish ham
hammaning qo'lidan keladigan ish emas.
Demak, Tog'ayda bizning ko'pchiligimizda
yo'q nimadir bor, bor edida..."**

(H. Xudoyberdieva).